XORAZM VILOYATI URGANCH SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 26-avgust | 492-12-180-Q/24 | Urganch shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyulda “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-245-sonli qarori hamda mazkur qarorga muvofiq qabul qilingan viloyat hokimining 2024-yil 15-iyuldagi 280-12-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyulda “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-245-sonli qarori hamda mazkur qarorga muvofiq qabul qilingan viloyat hokimining 2024-yil 15-iyuldagi 280-12-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

Qaror qilaman:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyulda “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-245-sonli qarori hamda mazkur qarorga muvofiq qabul qilingan viloyat hokimining 2024-yil 15-iyuldagi 280-12-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan viloyatlar iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari tashkiliy tuzilmasidan hamda G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi hududiy bo‘limlaridan mavjud shtat birliklarini qisqartirish hisobiga viloyat hokimliklarining tashkiliy tuzilmasida hokimning moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari bo‘ysunuvida hududlarning ixtisoslashuvini hisobga olgan holda master-rejalar soni va ko‘lamidan kelib chiqib, 3 - 5 tagacha shtat birligidan iborat master-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha Loyiha ofislari (keyingi o‘rinlarda — Loyiha ofislari) tashkil qilinishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

- Urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, shaharlar va tumanlar markazlarini rivojlantirish hamda aglomeratsiya hududlarini tashkil etishga qaratilgan master-rejalar ishlab chiqiladigan tuman (shahar)lar ro‘yxati 1-ilovaga;

aholi va sayyohlar uchun barcha qulayliklarga ega turizm maskanlarini tashkil etishga qaratilgan master-rejalar ishlab chiqiladigan tuman (shahar)lar ro‘yxati 2-ilovaga;

Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti (GIZ) bilan hamkorlikda kompleks iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan master-rejalar ishlab chiqiladigan tumanlar ro‘yxati 3-ilovaga;

master-rejalarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirishni tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat komissiyasi tarkibi 4-ilovaga;

dastlabki bosqichda ildam rivojlantirish uchun tanlab olingan shahar (tuman)lar ro‘yxati 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

- Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Raximov) tuman (shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda joriy yil yakuniga qadar mazkur qaror talablarini inobatga olgan holda xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘llari bo‘ylab zamonaviy infratuzilmani barpo etish, savdo va servis obektlarini joylashtirish uchun master-rejalar ishlab chiqilishi va yer uchastkalari auksion savdolariga chiqarilishini ta’minlash choralarini ko‘rishi;

- Tuman (shahar)lar bo‘yicha ishlab chiqiladigan master-rejalarning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilanganligi:

shahar (tuman)lar markazlarida urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, jumladan, aholi ehtiyojidan kelib chiqib, ko‘p qavatli va yakka tartibdagi uy-joylar majmualarini tashkil qilish;

aholi gavjum bo‘lgan shahar hududlaridan oqib o‘tuvchi suv bo‘ylarini obodonlashtirish, piyodalar va velosiped yo‘laklarini qurish, ular atrofida yengil konstruksiyali ko‘chma savdo va servis shoxobchalarini tashkil etish;

hududlarda aholi, turistlar va tadbirkorlik subektlari uchun qulay sharoitlar yaratish, jumladan, “yashil” hududlarni ko‘paytirish, zamonaviy xizmat ko‘rsatish va servis obektlarini, dam olish va ko‘ngilochar markazlar, savdo majmualarini tashkil qilish va yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish;

bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish, jumladan, hududning drayver yo‘nalishlarini hisobga olgan holda yer uchastkalarida iqtisodiy samarasi yuqori

faoliyat turlarini rivojlantirish, shuningdek, bo‘sh yerlarni tayyor lotlarga ajratgan holda tadbirkorlik subektlariga elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilish;

hududning infratuzilmaga bo‘lgan ehtiyojini baholash, jumladan, bo‘sh yer uchastkalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari uchun zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilma obektlari parametrlarini aniqlash;

aholi va tadbirkorlik subektlarining takliflari asosida master-rejalarni ishlab chiqish, jumladan, investitsiya va infratuzilma loyihalarini tanlab olish va shakllantirish;

- Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari M.Achilov, viloyat hokimining o‘rinbosari S.Bekchanov, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov) tuman (shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda 1-ilovadagi tuman (shahar)lar master-rejalarni ishlab chiqish maqsadida viloyat hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi buyurtmachiligida:

bir hafta muddatda viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (A.Elamonov), viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov), Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasi (B.Jumaboyev), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Raximov) tuman (shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda “K-SAVDO” va “E-AUKSION” tizimlarida tadbirkorlik va shaharsozlik maqsadlarida realizatsiya qilish uchun maydonining kamida 60 foizi bo‘sh yer uchastkalaridan iborat bo‘lgan (renovatsiya hududlari bundan mustasno) hududlarni tanlab, ularning ro‘yxatini tasdiqlashi;

ikki hafta muddatda master-rejalarni ishlab chiqishga qo‘yiladigan minimal talablar asosida texnik topshiriqlarni (keyingi o‘rinlarda — texnik topshiriq) ishlab chiqib, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanishi;

bir oy muddatda texnik topshiriq, tashkilot va kompaniyalarga qo‘yiladigan minimal talablar asosida belgilangan tartibda master-rejalarni ishlab chiqish uchun tashkilotlarni tanlab, shartnomalar tuzilishi hamda 2024-yil 1-noyabrga qadar master-rejalar tasdiqlanishini ta’minlashi;

master-reja hududidagi bo‘sh yer uchastkalarini master-rejalar tasdiqlangunga qadar auksion savdolariga chiqarmaslik choralarini ko‘rishi;

shuningdek, 1-ilovadagi tuman (shahar)lar bo‘yicha ishlab chiqiladigan master-rejalarni moliyalashtirish manbayi etib viloyat mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari va O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan byudjet ssudasi belgilanganligi inobatga olingani;

- Viloyat hokimining o‘rinbosari B.Saidov, viloyat turizm boshqarmasi (A.Xo‘jaev), viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (A.Elamonov) Bog‘ot tumani hokimligi bilan birgalikda **ikki hafta muddatda** 2-ilovaga muvofiq tumanda turizm salohiyati yuqori hududlarni belgilasin, **ikki oy muddatda** ularda turizm maskanlarini tashkil etish bo‘yicha master-rejalarni ishlab chiqish maqsadida ishlab chiquvchilar bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzib, **2024-yil 1-noyabrga qadar** master-rejalarni ishlab chiqishni yakunlash choralarini ko‘rishi;

- Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Raximov), viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (A.Elamonov) hamda Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasi (B.Jumaboev) tuman (shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda master-rejalar hududlaridagi bo‘sh yer uchastkalarini master-rejalarda belgilangan obektlarni tashkil etish sharti bilan auksion savdolariga chiqarish choralarini ko‘rishi;

- Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (A.Davletov va B.Saidov) Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (K.Igambergenov), tuman (shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda master-rejalarni amalga oshirish, jumladan, master-reja asosida auksion savdolariga chiqariladigan bo‘sh yer uchastkalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalariga tashabbuskorlarni jalb qilish choralarini ko‘rishi;

- Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari G‘.Sattarov viloyat hokimligining tashkiliy tuzilmasida hokimning moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari bo‘ysunuvida master-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha loyiha ofisi (keyingi o‘rinlarda — loyiha ofisi) tashkil qilishi;

Loyiha ofisining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanganligi;

tuman (shahar)lar hokimliklari bilan hamkorlikda tuman va shaharlarda masterreja hududlarini aniqlash, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ushbu hududlar chegaralarini belgilash va uning tasdiqlanishini ta’minlashi;

master-rejalarni ishlab chiqishda buyurtmachilar bilan yaqindan ishlab, ularga texnik topshiriqlarni tayyorlash, master-rejalarni ishlab chiqishga jalb etiladigan tashkilotlarni aniqlashga ko‘maklashishi;

master-rejalarga muvofiq yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarishni va tashabbuskorlarni jalb qilishni tashkil qilishi;

master-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini doimiy monitoring qilib borish, amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har oyda tegishli viloyat komissiyaga kiritib borishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Master-rejalarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirishni tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha shahar komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul etib shahar hokimining birinchi o‘rinbosari J.Eshchanov hamda shahar hokimining o‘rinbosarlari M.Salayev va A.Isakov zimmasiga yuklansin.

Urganch shahar hokimi **B.Radjapov**

Urganch shahar hokimining
2024-yil 26-avgustdagi
492-12-180-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Master-rejalarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirishni tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha shahar komissiyasi
TARKIBI

T/r	F.I.O.	Lavozimi
1.	J.Eshchanov	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari – *shahar komissiyasi rahbari*
2.	M.Salayev	Shahar hokimining o‘rinbosari - *shahar komissiyasi rahbarining o‘rinbosari*
3.	A.Isakov	Shahar hokimining o‘rinbosari - *shahar komissiyasi rahbarining o‘rinbosari*
4.	O.Agabullayev	Shahar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i - *shahar komissiyasi rahbarining o‘rinbosari*
5.	J.Sapaev	Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i - *shahar komissiyasi rahbarining o‘rinbosari*
6.	I.Boltayev	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi mas’ul xodimi (kelishilgan)
7.	U.Jumaniyozov	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish shahar bo‘limi boshlig‘i
8.	B.Allayorov	Davlat kadastrlari palatasi shahar bo‘limi boshlig‘i
9.	A.Ro‘zmetov	Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi tarkibidagi shahar yo‘llardan foydalanish korxonasi rahbari
10.	A.Nurmetov	“Urganch shahar elektr ta’minoti” korxonasi boshlig‘i
11.	B.Jumanyazov	“Urganchshahargaz” gaz ta’minoti bo‘limi boshlig‘i
12.	N.Djumaniyazov	“Xorazm suv ta’minoti” MChJ Shahar bo‘limi boshlig‘i
13.	Lavozimiga ko‘ra	Mahalla hokim yordamchilari
14.	A.Raximov	Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi bosh mutaxassisi

***Izox**: shahar komissiyasining a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.*